

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2021. Tar.55.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

MAXMUDOV UMRBEK BAXTIYOROVICH

**OROLBO‘YI SHARQIY HUDUDIDA IJTIMOYIY-IQTISODIY VA ETNO-
MADANIY MUNOSABATLAR TARIXI (MIL. AVV. IX-VIII – MILODIY
IV ASR)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

URGANCH – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich

Orolbo‘yi sharqiy hududi ijtimoiy-iqtisodiy va etno-madaniy munosabatlar tarixi
(mil. avv. IX-VIII – milodiy IV asrlar)3

Махмудов Умрбек Бахтиярович

История социально-экономических и этнокультурных отношений восточного
региона Приаралья (IX-VIII вв. до н.э. – IV в. н.э.)23

Makhmudov Umrbek Bakhtiyarovich

The history of socio-economic and ethno-cultural relations in the eastern Aral sea
region (9th-8th centuries BC – 4th century AD)45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of publications49

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

MAXMUDOV UMRBEK BAXTIYOROVICH

**OROLBO‘YI SHARQIY HUDUDIDA IJTIMOYIY-IQTISODIY VA ETNO-
MADANIY MUNOSABATLAR TARIXI (MIL. AVV. IX-VIII – MILODIY
IV ASR)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

URGANCH – 2024

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Tar1427 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch Davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.urdu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sabirov Kurbanbay
tarix fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Xolikulov Axmadjon Boymaxammatovich
tarix fanlari doktori, professor

Qidirniyazov Omar-Sharif
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

**O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq
gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "9" *noyabr* soat 10 : 00 *dagi* majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-66-16. e-mail: info@urdu.uz

Dissertatsiya matni bilan Urganch davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (*A-1470* raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-66-16. e-mail: arm@urdu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "26" *oktabr* kuni tarqatildi.

(2024-yil "26" *oktabr* *dagi* 13 raqamli reestr bayonnomasi.)



M.K. Saribaev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, t.f.d., dotsent

X.X. Matyakubov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, PhD., dotsent

U.I. Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d.,
professor

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. XX asr 90-yillar oxiri – XXI asr boshlarida jahon miqyosini qamrab olgan globallashuv sharoitida mamlakatlarning o‘zaro iqtisodiy-madaniy munosabatlar integratsiyasi, xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro teng huquqli hamkorlik uchun keng yo‘l ochib bormoqda. Xalqaro tashkilotlar faoliyatining hamkorligi masalasida muhim ahamiyat kasb etib, amalga oshirilayotgan dasturlarda har bir xalqning etnogenezi va etnik tarixi, tarixiy davr, uning turli bosqichlarida tarixiy jarayonda amal qilingan milliy qadriyatlar, ularning xususiyatlari, rivojlanishining tarixiy ildizlarini o‘rganish, uni yanada rivojlantirishni O‘rta Osiyo mintaqasida yangi bosqichga olib chiqish hozirgi davrning zaruratidir. Jahon mintaqasi tarixiy-geografik hududlarda istiqomat qilgan o‘troq aholi va chorvador qabilalar o‘rtasidagi tarixiy davrlarning turli bosqichlarida olib borilgan aloqalar barobarida bunyodkorlik faoliyati natijalarini real manbalar asosida o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon miqyosida O‘rta Osiyo mintaqasida, ayniqsa Orolbo‘yi sharqiy hududida kechgan etnik munosabatlar, ularning qo‘shni hududlarda istiqomat qilgan xalqlar hayotiga ta’siri, qadimgi davrning yirik davlatlari bo‘lgan Xorazm, Qang‘, Kushon davlatlari tizimida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va etno-madaniy munosabatlarida yuz bergan o‘zgarishlar O‘rta Osiyo tarixiy-geografik hududlari tarixiga oydinlik kiritish tadbirlari olib borildi va hozirda bu jarayonlar davom etmoqda.

Sharqiy Orolbo‘yi tekisligida joylashgan chorvador qabilalarning qo‘shni hududlardagi o‘troq aholi bilan olib borgan o‘zaro hamkorlik munosabatlarini o‘rganish juda muhim. Mintaqadagi urbanizatsion jarayonlar, o‘zaro madaniyatlar almashishi natijasida kelib chiqqan uyg‘unlik jihatlari, xo‘jalik rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, ulardan zamonaviy islohotlar jarayonida foydalanish, davlat boshqaruvidagi o‘zgarishlarni keng tatbiq qilish, mintaqada antik davlatlar o‘rtasida olib borilgan hamkorlik masalalarini xolisona tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Orolbo‘yi sharqiy tekisligida o‘rnashgan o‘troq va ko‘chmanchi qabilalar o‘rtasida olib borilgan iqtisodiy-madaniy aloqalarning tarixiy ildizlari uzoq o‘tmish bilan izohlanadi. Yozma manbalarda yuqorida qayd qilingan Orolbo‘yi o‘zanlar o‘rtasi va oxiri hududlarida istiqomat qilib jamiyatni tadrijiy rivojlanishni olib borgan aholi yozma manbalarda turli atamalarda qayd qilingan. Tarixiy davrning barcha jarayonlarida ham o‘troq va ko‘chmanchi aholining tinch sharoitda bag‘rikenglik, o‘zaro hamkorlik tarzida munosabatlarni o‘rnatib, tarix taqozosiga ko‘ra olib borgan migratsion siyosati bir-biri bilan bog‘laydigan aloqa yo‘llari yaqinlashtirgan. Bu jarayon hozirgi vaqtda ham davom etmoqda.

Hozirgi zamon sharoitida O‘rta Osiyo mintaqasida istiqomat qilayotgan xalqlarning geografik umumjihatlari, etnik-madaniy munosabatlar, diniy e’tiqod yaxlitligi, millatlararo muloqot va davlatlararo iqtisodiy, siyosiy va savdo munosabatlarini rivojlantirishda xalqaro karvon yo‘llarining qayta tiklanishi ijobiy natijalarni bermoqda. O‘rta Osiyoning shimoliy-sharqiy tekisligini namoyon qilgan Orolbo‘yi sharqiy tekisligi geografik xususiyati, tabiiy iqlim sharoiti, suv ta’minotining barqarorligi, o‘rnashgan aholining xo‘jalik yo‘nalishlarini davom ettirishga qulay bo‘lgani, bu imkoniyatlar tarixiy davr va uning turli bosqichlarida

yuz bergan o'zgarishlarida o'z ma'nosini topgan. Mustaqillik yillarida Respublikamizda amalga oshirilgan tub islohotlar, ijtimoiy fanlar tadqiqotchilar oldida dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni kun tartibiga qo'yimoqda. Shu jihatdan olganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Xalqimizning boy madaniy merosini chuqur o'rganish, turli tadqiqotlar olib borish hamda jahon miqyosida targ'ib qilish katta ahamiyatga ega¹" deb qayd qilishida haq edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda 2018-yil 18-yanvar F-5181-son "Moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoyishida belgilangan ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarida belgilangan vazifalarni bajarishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sharqiy Orolbo'yi tekisligida joylashgan aholining tarixini yoritishda mavjud bo'lgan ma'lumotlar ikki guruhga ajratiladi. Birinchi guruhga ilk yozma manbalar ma'lumotlari, ikkinchi guruhga arxeologik tadqiqotlar natijalari kiradi². Muammoning o'rganilganlik darajasining o'ziga xos jihatlari shuki, XX asrning 30-yillarida Orolbo'yi hududlarida arxeologik ishlarning tashkillashtirilishi natijasida ilk yozma manbalar va arxeologik ashyolarga tayangan holda mavzuni o'rganish va talqin qilish imkoni paydo bo'lgan. Arxeologiya ma'lumotlarining doirasi kengayib borgan va ularning Orolbo'yi sharqiy hududida ijtimoiy-iqtisodiy va etno-madaniy munosabatlar tarixini o'rganishdagi ahamiyati turli tadqiqotlarda qayd etilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-30-noyabr kunlari Xorazm viloyatiga tashrifi davomidagi topshirig'i hamda 30-noyabr kuni Xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdan tashqari sessiyasi yig'ilishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2018-yil 5-dekabrda № 22531-xx bayon topshirig'i asosida Urganch Davlat universiteti Tarix kafedrası, Xorazm Ma'mun Akademiyasi va O'zRFA, O'zMU hamkorligidagi "O'zbekiston tarixi (Xorazm tarixi) XI jild" ni tayyorlash" mavzusidagi (2018 – 2023-yy.) amaliy rejasi doirasida bajarilgan.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг туркий халқлар Кенгашининг видеоконференцияси шаклида ўтказилган Саммитдаги нутқи// 2021 йил 1 апрель.

² Mavzu bo'yicha manbalar va uning o'rganilganlik darajasi dissertatsiyaning I bobida batafsil yoritilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Orolbo‘yi sharqiy hududi aholisining mil.avv. IX-VIII – milodiy IV asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va etno-madaniy munosabatlari tarixini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

XX-XXI asr boshlarida Sharqiy Orolbo‘yi aholi turar joylarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning natijalarini yoritish;

Sharqiy Orolbo‘yi xalqlarining tarixiga oid manbashunoslik materiallarining tahlilini berish;

Sharqiy Orolbo‘yi hududining paleogeografik holati, o‘zlashtirilish bosqichlarini aniqlashtirish;

Sharqiy Orolbo‘yi tekisligida o‘troq va chorvador aholi turar-joylarini joylashish va tipologik xususiyatlarini ochib berish;

Quyida Sirdaryo havzasidagi ko‘chmanchilar, ularning Xorazm vohasi bilan munosabatlari masalalarini ko‘rib chiqish;

Amudaryo va Sirdaryo o‘rtasida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va etno –madaniy munosabatlarni ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ishtirok etgan ko‘chmanchi sak va yuechjilarning o‘zaro aloqalarini migratsion jarayonlarga ta’sirini Qang‘, Kushon va Afrig‘ davlatlarida kechgan tarixiy jarayonlar xususida yaxlit tadqiqot yaratishdan iborat.

Tadqiqotning obykti sifatida Sharqiy Orolbo‘yi hududi, aynan, quyida Amudaryo va quyida Sirdaryo tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti Sharqiy Orolbo‘yi tekisligi paleogeografik holati, o‘zlashtirilishi, o‘troq va chorvador aholi turar-joylarining joylashishi va tipologik xususiyatlari, Amudaryo va Sirdaryo o‘rtasida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va etno-madaniy munosabatlar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiy-xronologik, obyektivlik, tarixiy-qiyosiy tahlil, mavzuga oid yondashuvlar va ilmiy qarashlarning tanqidiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Amudaryo va Sirdaryo quyida havzalarining geografik holati, etnik jarayonlarning rivojlanish bosqichlari, hududiy chegaralari, kartografiyasi masalalariga oydinlik kiritildi;

Sharqiy Orolbo‘yi hududining o‘zlashtirilishi, o‘troq va chorvador aholining turar-joylarini joylashishi va tipologik xususiyatlari, Quyida Sirdaryo havzasidagi ko‘chmanchilarni Xorazm vohasi bilan munosabatlari, Sirdaryo quyida havzasida aholining binokorlik bilimi asosida Tagisken, Chirikrabort, Balandi, Oltinasar yodgorliklarini topografik joylashishi, ularni konstruktiv tuzilishi, mudofaa tizimi bilimining Xorazm vohasi antik davr yodgorliklari bilan o‘xshashlik xususiyatlari Quyida Amudaryodagi Bozorqal’a, Dingilja materiallari asosida innovatsion g‘oyalar asosida dalillandi;

Antik davr dunyosining siyosiy manzarasini aks ettirgan Qang‘, Kushon va Afrig‘ davlatlari o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarning olib borilishi oydinlashtirildi, Kushon imperiyasi va Qang‘ davlati o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy aloqalari pirovardida Yansay (Orolbo‘yi) xalqlarining yashash sharoitida ijobiy o‘zgarishlarga olib kelish barobarida nomadizmning inqirozini

boshlab berganligi asoslangan, shuningdek, bu jarayon Amudaryoning o'ng sohilida siyosiy birlashuv, sedentarizatsiya va o'troqlashuviga olib kelganligi isbotlangan;

Xorazm vohasi aholisining hayot va ijod uyg'unligi bo'lgan shaharsozlik madaniyati bilimi asosida loy me'morchiligi maktablari vujudga kelishi va shakllanish tarixi yoritildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Orolning sharqiy hududlarida yashagan ko'chmanchi va o'troq xalqlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy aloqalar tarixi moddiy va yozma manbalar asosida o'rganilib, uning xronologiyasiga yangicha yondashuv asosida aniqlik kiritilgan;

Amudaryo va Sirdaryo quyi havzalarining geografik holati, etnik jarayonlarning rivojlanish bosqichlari, hududiy chegaralari, kartografiyasi masalalariga oydinlik kiritilgan;

Orolbo'yi sharqiy qismida ko'chmanchi chorvadorlarning ta'sir doiralarini yuzaga kelishida ko'chmanchi jamiyatning o'ziga xos o'rni belgilanib, o'troq xalq madaniy aralashuvining davriy chegaralari ilk marta muomalaga kiritilgan;

O'zbekiston tarixining qadimgi davrini o'qitish va o'rganish uchun muhim amaliy tavsiya va takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada O'zbekiston tarixi faniga doir ilg'or yondashuv va usullar qo'llanilib, davrga oid manbalar, dala tadqiqotlari natijasida olingan moddiy manbalar hamda tarixiy adabiyotlardan foydalanilgan holda tayyorlangani, olingan xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan isbotlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, dissertatsiyadagi yangi ma'lumotlar O'rta Osiyo mintaqasi, xususan, O'zbekiston tarixining antik davri tarixiy jarayonlari bo'yicha qarashlar va nazariyalarni takomillashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati jamiyat tarixiy ma'naviyati, madaniy taraqqiyoti, umuminsoniy qadriyatlar, madaniy merosini o'rganishga bag'ishlangan davlat dasturlarini bajarishda, shuningdek, darslik, o'quv qo'llanma va monografiyalar tayyorlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Orolbo'yi sharqiy hududida ijtimoiy-iqtisodiy va etno-madaniy munosabatlar tarixini (mil.avv. IX-VIII – milodiy IV asr) tadqiq etish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va xulosalar asosida:

Amudaryo va Sirdaryo quyi havzalarining geografik holati, etnik jarayonlarning rivojlanish bosqichlari, hududiy chegaralari, kartografiyasi bo'yicha natijalardan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasida 2021 – 2022-yillarda bajarilgan "O'zbek harbiy san'ati tarixi" nomli fundamental loyiha doirasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2024-yil 15-iyuldagi 10/1339-sonli dalolatnomasi). Ushbu ilmiy natijalar talabalarda tarixiy tafakkurni shakllantirish, o'lka xalqlari madaniy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish imkonini bergan;

Sharqiy Orolbo'yi hududining o'zlashtirilishi, o'troq va chorvador aholining turar-joylarini joylashishi va tipologik xususiyatlari, Quyi Sirdaryo havzasidagi ko'chmanchilarni Xorazm vohasi bilan munosabatlari, Sirdaryo quyi havzasida

aholining binokorlik bilimi asosida Tagisken, Chirikrabort, Balandi, Oltinasar yodgorliklarini topografik joylashishi, ularni konstruktiv tuzilishi, mudofaa tizimi bilimining Xorazm vohasi antik davr yodgorliklari bilan o'xshashlik xususiyatlari Quyi Amudaryodagi Bozorqal'a, Dingilja materiallari asosida olingan natijalardan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasida 2021 – 2022-yillarda bajarilgan "O'zbek harbiy san'ati tarixi" nomli fundamental loyiha doirasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2024-yil 15-iyuldagi 10/1339-sonli dalolatnomasi). Mazkur ilmiy natijalar loyiha doirasida tayyorlangan dastur, monografiya va elektron resurslarni mazmunan boyitish imkonini bergan;

Antik davr dunyosining siyosiy manzarasini aks ettirgan Qang', Kushon va Afrig' davlatlari o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarning olib borilishi oydinlashtirildi, Kushon imperiyasi va Qang' davlati o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy siyosiy aloqalari pirovardida Yansay (Orolbo'yi) xalqlarining yashash sharoitida ijobiy o'zgarishlarga olib kelish barobarida nomadizmning inqirozini boshlab berganligi asoslangan, shuningdek, bu jarayon Amudaryoning o'ng sohilida siyosiy birlashuv, sedentarizatsiya va o'troqlashuviga olib kelganligini isbotlovchi natijalar O'zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali davlat muassasasining 2024-yil 15-iyuldagi 04-36-852-sonli dalolatnomasi). Natijada antik davr dunyosining siyosiy manzarasini aks ettirgan Qang', Kushon va Afrig' davlatlari o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarning olib borilishi muhim ahamiyat kasb etganligi to'g'risidagi qarashlarni yanada boyitishga xizmat qilgan;

Xorazm vohasi aholisining hayot va ijod uyg'unligi bo'lgan shaharsozlik madaniyati bilimi asosida loy me'morchiligi maktablari vujudga kelishi va shakllanish tarixi kabi natijalaridan kabi natijalardan O'zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali davlat muassasasining 2024-yil 15-iyuldagi 04-36-852-sonli dalolatnomasi). Olingan natijalar asosida tayyorlangan ko'rsatuvlar ssenariyasi mazmunan ilmiy jihatdan boyishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy konferensiyalarda, shu jumladan 4 ta xalqaro konferensiya va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 12 ta ilmiy ishlar chop etilgan. Shulardan, Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarning asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnalda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat. Ishning tadqiqot qismi 135 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqot ishining **Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, tadqiqot

ob'ekti, predmeti, tadqiqotning ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, aprobatsiyasi, natijalarning joriy qilinishi, e'lon qilinganligi hamda tarkibiy tuzilishi tavsiflangan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Manbalarda mavzuning yoritilishi va tarixshunoslik masalalari”** deb nomlangan. Uning *“Aqchadaryo shimoliy-sharqiy va Quyi Sirdaryo hududlari tarixining manbalarda aks etishi”* deb nomlangan birinchi paragrafida mavzuga oid yozma va arxeologik manbalar xronologik izchilikda hamda manbaning tili jihatidan tizimlashtirish asosida tahlil qilib chiqilgan.

Shu nuqtai nazardan o'rganilayotgan mavzu yuzasidan to'plangan jami ma'lumotlar ikkita guruhga ajratilgan holda o'rganilgan. *Birinchi guruhga* yozma manba materiallari (*“Avesto”*, fors bitiklari, yunon-rim mualliflarining asarlari, xalq og'zaki ijodi materiallari), *ikkinchi guruhga* arxeologik manbalar asosida yodgorliklardan topilgan va hozirga qadar o'rganilmagan ashyolar kiradi. O'rta Osiyo bo'yicha eng qadimgi yozma manba *“Avesto”* kitobida Sharqiy Orolbo'yi tekisligida aholi to'g'risidagi tarixiy ma'lumotlarni kuzatish mumkin. Zardusht tomonidan bitilgan muqaddas *“Avesto”* kitobi *“Yasht”* qismi X bobida jamiyat tarkibini tasvir etgan urug' oqsoqollari, qabila va yo'l boshchilari, mamlakat sardori, oila, urug' va qabila birlashmalari qayd qilingan³.

Turon pasttekisligi shimoliy-sharqiy va Quyi Sirdaryo tekisligi geografik manzarasini hosil qilgan floradan chorvachilik xo'jaligini olib borgan aholi qadimgi fors manbalarida *“Saka”* etnotoponomikasi qayd qilingan⁴. Ahamoniylar imperiyasi hukmdori Doro I davrida harbiy harakatlar natijasida zabt qilingan 23 ta davlatlar singari (Elam, Babil (Vavilon) va Midiya) Sharqiy Orolbo'yi tekisligida tabiiy manbalardan unumli foydalangan aholi *“Sak”* (Shak), Saka 519-yilda atamasidagi chorvadorlar hududiga harbiy harakatlarni boshlagan, umumiy nomda *“Saka”* nomi o'rin olgan⁵.

Ahamon imperiyasi poytaxti Persepoll shahri yaqinida Naqshi Rostam qoyasida bitilgan yozuvlarda O'rta Osiyo xalqlari vakillari *“saka tigraxauda”*, *“saka xaumavarka”* va *“daryo orti saklar”* tasviri bitilgan⁶. Shuningdek, Suza shahridagi Doro I haykalidagi yozuvlarda *“botqoqlar va tuproq o'lkasida istiqomat qilgan saklar guruhi haqida* A.V.Edakov maqolasida qayd qilgan⁷.

Mil.avv. 530-yillarda Kir II O'rta Osiyo o'z bosqiniga, ya'ni birinchi bosqich Parfiya, Kaspiybo'yi, ikkinchi Baqtriya, uchinchisi esa Orolbo'yi hududlarini harbiy yo'l bilan bosib olgan edi. Kir II va Doro I tomonidan O'rta Osiyo asosiy dehqonchilik vohasi hamda Orolbo'yi sharqiy hududlari aholisiga qarshi yurishlar yunon tarixchilari asarlarida ma'lumotlar keltirilgan. O'rta Osiyoning bosib olingan

³ Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўзбекистон ёзма манбаларда. – Тошкент, 1996. – Б. 16-17.

⁴ Оранский И.М. Иранские языки в историческом освещении. – М.: “Наука”. 1979 – С. 13-14.

⁵ Хрестоматия по истории Древнего Востока Бехистунская надпись Дария-1. Перевод В.И.Абаева. – М.: Высшая школа, 1980. – С. 24.

⁶ Сагдуллаев А.С. Ко'rsatilgan asar. – Б. 32.

⁷ Эдаков Л.В. Новые надписи Ахеменидов // ВДИ. – № 2. – М., 1976. – С. 91-95.

hududlaridan vakillar yunon-fors urushlarida qatnashganliklari to'g'risida ma'lumotlar nashrlarda qayd qilingan⁸.

Rossiya xonliklar hududidagi tabiiy manbalarni o'rganish maqsadida geolog, geograf va tarix fanlarini puxta o'zlashtirib olgan vakillarini yuborgan. Masalan, Sharqshunos olim A.L.Kun, A.V.Kaulbars, M.I.Ivanin, A.Ye.Rossikova, N.A.Dimo asarlarida arxeologik yodgorliklar (Ayozaqal'a-1,2,3, Katta Guldursun, Jampiqqal'a, Eresqal'a) joylashishi mudofaa tuzilmalari to'g'risida ma'lumotlar o'rin olgan⁹.

Dissertatsiya birinchi bobining "*Nashrlarda arxeologik yodgorliklarning yoritilish tarixi (XX-XXI asr)*" deb nomlangan ikkinchi paragrafida arxeologik yodgorliklar to'g'risidagi ilmiy izlanishlar tarixi o'rganilib, unda nashrlarda yoritilgan ma'lumotlar tahlil qilingan.

Shu jihatdan olganda XX-XXI asrlarga tegishli arxeologik yodgorliklar to'g'risidagi ilmiy izlanishlarni nashrlarda yoritilish davrini ikki guruhga bo'lib o'rganildi. Birinchi guruhga 1936 – 1990-yillardagi ilmiy tadqiqot asarlari; ikkinchi guruhga esa mustaqillik yillarida O'zbekiston, MDH davlatlarida va xorijda yaratilgan ilmiy adabiyot, monografiya, risola, maqolalar kiritildi.

Mavzuning tarixshunosligidagi birinchi guruh adabiyotlarining xususiyati shundaki, mazkur davrda qator ilmiy izlanishlar olib borilganiga qaramay, ushbu adabiyotlarda Qang' va Kushon davlatlarining asoschilari bo'lgan o'troq va ko'chmanchi xalqlarning Xorazm bilan o'zaro aloqalari masalalarini o'rganishda nisbatan ko'proq iqtisodiy xususiyatga ega omil birlamchi qilib ko'rsatilgan. Ikkinchi guruhga kiruvchi ilmiy adabiyotlar mustaqillik yillarida O'zbekiston va MDH davlatlarida yozilgan bo'lib, ularda yangicha yondashuvlar va tarixni yoritishda yetarli darajada xolislikka e'tibor beriladi. Ushbu tadqiqotlarda antik davrda Orolning sharqiy hududlarida yashagan o'troq va ko'chmanchi xalqlarning migratsiyasi va o'zaro madaniy aloqalari tizimli ravishda o'z aksini topa boshlagan.

XX asr 30 – 40-yillarida Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari O'zboy, Sariqamishbo'yi, Quyi Amudaryo, Sirdaryo quyi havzasi va o'rta qismi hududlarida olib borgan arxeologik dala amaliyoti davrida 400 dan ziyod yodgorliklar ro'yxatga olinidi natijada ularni o'rganish istiqboli vujudga keldi.

S.P.Tolstov rahbarligida Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasi xodimlarining Xorazm vohasi unga geologik jihatdan ulangan Orolbo'yi sharqiy tekisligi hamda Sirdaryoning o'rta qismida olib borilgan dala amaliyoti davrida ro'yxatga olingan arxeologik yodgorliklarida 1946-yilgacha qazishma ishlari olib borilgan emas, ammo Amudaryo "Oqchadaryo irmog'i hududida Ko'zaliqir, Qal'aliqir, Yonboshqal'a yodgorligida qazishma ishlari natijasida mil.avv. IV asrga oid manbalar olingan¹⁰. Shuningdek, 1939 – 1940, 1945 – 1990-yillarda S.P.Tolstovning Xorazm

⁸ Борухович В.Г. Научное и литературное значение труда Геродота // Геродот. История в десяти книгах. Перевод и прим Г.А.Стратоновского – Л.: "Наука", 1972. – С. 465-466.

⁹ Кун А.Л. Культура оазиса Низовьев Амударьи // ЗИРГО. – СПб. 1874. – С. 250-275.; Каульбарс А.В. Низовья Амударьи, описанные по собственным исследованиям в 1873 г. – СПб., 1881. Т-3.; Иванин М.И. Хива и река Аму-дарья – СПб., 1873. – С. 37-39.; Россикова А.Е. По Амударье от Петро-Александровска до Нукуса // Исторический вестник СПб., 1902. Т-28 – С. 641-643.; Димо Н.А. Почвенные исследования в бассейне в Амударьи // Ежегодник отдела земельных улучшений за 1913-1914 часть-2.

¹⁰ Толстов С.П. Древности Верхнего Хорезма // ВДИ – М., 1941. – № 2. – С. 177-178.

ekspeditsiyasi, A.A.Marushenkoning¹¹ janubiy Turkmaniston ko'chmanchi qabilalar yodgorliklarini o'rganish natijalari, O.V.Obelchenkoning¹² So'g'd qabr-qo'rg'onlaridagi tadqiqotlari, A.M.Mendelshtamning¹³ Baqtriyadagi arxeologik izlanishlari, Ye.A.Davidovich, B.A.Litvinskiylarning¹⁴ Farg'ona vodiysi chorvadorlari qabr-qo'rg'onlarida olib borgan keng masshtabli qazishmalari natijalari ham tadqiqotimizga aniqlik kiritadi. Y.G'.G'ulomovni asarida Xorazmning Katta Guldursun, Pil qal'a, Hozarasp, Qal'ajiq, Olmaotishgan, Xiva, Jigarband qal'alari¹⁵ yodgorliklari materiallari mil. avv. IV-III asrlardagi Xorazmning qo'shni chorvador qabilalar bilan ijtimoiy-iqtisodiy va etno-madaniy aloqalari haqida dastlabki tasavvurlarga ega bo'lishga xizmat qilgan. Xorazm ekspeditsiyasi nashrlarida Ayozaqal'a, Duman qal'a, Jildik qal'a, Katta Guldursun va Pil-qal'a yodgorliklardan Qo'yqirilganqal'a, Qo'rg'oshin qal'a, Bozorqal'a, Jonbosqal'a, Qizilqal'a, Tuproqqal'a va Kichik Qirqqiz, Anqaqal'a, Qo'yqirilganqal'a¹⁶ materiallari o'rganildi. O'rganilgan materiallarning o'tgan asrning 50-yillarida Markaziy¹⁷, Sharqiy¹⁸ va Janubiy Qozog'istonda¹⁹ olib borilgan arxeologik ekspeditsiyalar natijalari bilan taqqoslanilishi Xorazmning ko'chmanchi va chorvador qabilalar bilan aloqalari haqidagi dastlabki ma'lumotlarga yanada oydinlik kiritgan.

1959 – 1990-yillarda olib borilgan keng ko'lamlil tadqiqotlar biz o'rganayotgan mavzu doirasida yangi tadqiqotlarga asos bo'la boshladi. Bu davrga kelib nafaqat Quyi Amudaryo, balki Quyi Sirdaryo materiallari ham ko'rib chiqila boshlandi. Arxeologlar Y.A.Rapoport va S.V.Trudnovskayalar²⁰ tomonidan olib borilgan ishlar Sulton Uvays tog'idagi Govurqal'a harbiy istehkom inshootlari xususiyatini ko'rib chiqishga imkon bersa, Tagisken va Uygarak qo'rg'onlarining o'rganilishi natijasida M.A.Itina²¹, O.A.Vishnevskayalar²² Orolbo'yi saklari haqida yangidan yangi materiallarni ilmiy jamoatchilikka taqdim etganlar. Bundan tashqari, 1965-yildan Xorazmning chap qirg'og'i hududida Amudaryoning Sariqamish deltasida olib borilgan tadqiqotlar ijobiy natijalar bergan. Masalan, O.A.Vishnevskayaning Yassiqir

¹¹ Марушенко А.А. Курганные погребения сарматского времени в подгорной полосе Южного Туркменистана //ТИАЭ АН ТуркССР. Т-5. 1959.

¹² Обельченко О.В. Куйимазарский могильник //ТИИА.УзССР. Т-8. – 1956.; O'sha muallif. Лявандакский могильник // ИМКУ. Вып.2. – Т., 1961.

¹³ Мендельштам А.М. Кочевники на пути в Индию. – МИА. – № 136. – М. – Л, 1966. – С.80.; O'sha muallif. Об одном археологическом аспекте Кушанской проблемы советской археологии. – М., 1978. – С.139-140.

¹⁴ Давидович Е.А., Литвинский Б.А. Археологический очерк Исфаханского района. – Сталинобод, 1955.

¹⁵ Гулямов Я.Г. Памятники города Хивы //Труды УзФАН СССР. Сер.1. История, археология. Выш.3. – Ташкент. “Фан”, 1941. – Б. 4.

¹⁶ Тереножкин А.И. Археологические разведки в Хорезме //СА. VI. М., “Наука”, 1940. – Б. 165-190.

¹⁷ Кадырбаев М.А. Памятники тасмалинской культурой // Маргулан А.Х., Акишев К.А., Кадырбаев М.К., Кадырбоев А.М. Древняя культура Центрального Казахстана. – Алма-ата. 1966.

¹⁸ Черников С.С. Загадка Золотого кургана: Где и когда зародилась скифское искусство. 1965.

¹⁹ Капылов И.И. Сакские племена Сир-дарьи и Семиречье по археологическим данным. Ав.дисс.кан.ист. наук. – Л., 1953.; Акишев К.А., Кушаев Г.А. Древняя культура саков и усуней долины рек Или. – Алма-Ата 1963.

²⁰ Рапопорт Ю.А. Краткий очерк истории Хорезма в древности //Приаралье в древности и средневековье— М.: ИВЛ РАН, 1998. – С. 28-41.; Вайнберг Б.И. Этногеография Турана в древности. VII в.до.н.э – VIII в.н.э. – М.: ИВЛ РАН., 1999. – С.356.; Болелов С.Б. Крепость Аязкала-3 в правобережном Хорезме //Приаралье в древности и средневековье. – М., 1998. – С.117-134.

²¹ Итина М.А. История степных племён южного Приаралья начало I тысячелетия до.н.э. – М., ТХЭ. Т.10.1977.; O'sha muallif. Загадочные ограды на курганных группах низовьев Сир-дарьи и Южного Приаралья. //Древности Евразии в скифо-сарматского время. – М., 1984.

²² Вишневская О.А. Культура сакских племён низовьях Сир-дарьи в VIII-VII вв. до нашей эр. По материалам Уйгарак. // ТХЭ, т. 8.1973.; Вишневская О.А., Итина М.А. Ранние саки Приаралья // ПСА. 1971.

qo'rg'onidagi, V.A.Loxovisning²³ Tuzqirdagi tadqiqotlari Xorazm chegaralaridagi ko'chmanchi chorvador qabilalarning hayoti haqidagi ma'lumotlari diqqatga sazavordir.

B.I.Vaynberg²⁴ tomonidan Tumak-Kichijiq, Tarimqoya va Shoxsanamqirda olib borilgan ilmiy tekshirishlar natijasida ko'chmanchi chorvadorlarning Quvisoy madaniyati o'rganilib, unda mil. avv. VII – milodiy IV asrlaridagi Xorazmning o'troq aholisi va qo'shni chorvador qabilalar bilan munosabatlariga oydinlik kiritilgan. X.Y.Yusupov²⁵ va L.L.Galkinlarning²⁶ bir qator tadqiqotlarida ham mavzuga taalluqli materiallar o'z aksini topgan.

Dissertatsiyaning **“Orolbo‘yi sharqiy hududlarining paleogeografik holati va madaniy-xo‘jalik mikrovohalarning vujudga kelishi”** deb nomlangan ikkinchi bobining *“Orolbo‘yi sharqiy hududlarining paleogeografik holati va o‘zlashtirish bosqichlari”* sarlavhali birinchi bandida sharqiy Orolbo‘yi hududining vujudga kelishi va u yerda kechgan etnik jarayonlar hamda bu hududda madaniy-xo‘jalik mikrovohalarning vujudga kelishi tarixi haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Geologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, to'rtlamchi davr oxirida Oqchadaryo irmog'ining shimoliy-sharqiy tomoni ajralib chiqqan shaxobchalar va Sirdaryo havzasi so'l sohilidan shimoliy-g'arbiy tomonga Jonidaryo, Quvondaryo irmoqlari suvlari Orol dengiziga kelishi munosabati bilan Sharqiy Orolbo‘yi havzasining shakllanish jarayoni kechgan. Mil.avv. I mingyillik birinchi yarmida Nukus shahri yaqinidan boshlangan Oqdaryo, Ko'hnadaryo, Toldiqdaryo, Erkindaryo va Qozoqdaryo shaxobchalari shimol tomonga yo'nalishi bilan Orolbo‘yi havzasi shakllanishi natijasida 50 km. maydonni egallagan tekislik tarkib topgan. Bu jarayonda Sharqiy Orolbo‘yi tekisligi ham qatnashgan²⁷.

Turon pasttekisligi shimolda geografik kenglik paleotektonik harakatlarning bir necha marotaba takrorlanishi natijasidir. Geografik va geologik nashrlarda qayd qilingan ma'lumotlarga ko'ra, Amudaryoni Oqchadaryo irmog'iga Sirdaryoni

²³ Лоховиц В.А. Подбойно-катакомбные и коллективные погребения курганного могильника Тумек-кичиджик – Кочевники на границах Хорезма. – С. 13-150.

²⁴ Вайнберг Б.И. Новая культура раннего железного века в левобережном Хорезме. – М., 1971. – С. 530-531.; O'sha muallif. Могильник Тумек-кичиджик в Северной Туркмении – М., 1973, – С. 475-476.; O'sha muallif. Новые памятники Куюсайской культуры в Северной Туркмении – 1975. – С. 518.; O'sha muallif. Куюсайская культура раннего железного века в Присарыкамьшской дельте Аму-дарьи. УСА.Вып.3. – Л., 1975, – С. 42.; O'sha muallif. Памятник раннего железного века в Северной Туркмении-Каракумские древности. Вып 5. – Ашхабад, 1977. – С. 25.; O'sha muallif. Памятники Куюсайской культуры. Кочевники на границах Хорезма. – С. 7-75.; O'sha muallif. Монеты древнего Хорезма. – М., изд-во. “Наука” 1977.

²⁵ Юсупов Х.Ю. Курганы Шахсенем-кыра. История и археология Средней Азии. Ашхабад., 1978, – С. 128-137.; O'sha muallif. Курганные памятники вдоль верхнего Узбоя. Тезисы докладов сессии, посвященной итогам полевых археологических исследований 1971 в СССР. – Ташкент, 1973., – С.118-119.; O'sha muallif. Новые археологические материалы Верхнего Узбоя. Каракумские древности. Вып 8. – Ашхабад, 1979. – С. 6-26.; O'sha muallif. Памятники древних кочевников Заузбойского плато (Чолинкыр) в кн. Культура и искусство древнего Хорезма. – М., “Наука”. 1981. – С.131.

²⁶ Галкин Л.Л. Разведки и раскопки в северо-восточном Прикаспии //АО. 1983.; O'sha muallif. Работы в северо-восточном Прикаспии //АО 1984.; O'sha muallif. Памятники северо-восточного Прикаспия //АО. 1985.

²⁷ Кесь А.С. Природные факторы, обуславливающие расселения древнего человека в пустыне Средней Азии. КСИЭ. Вып 30. – М., “Наука”. 1958. – С.172.; Вайнберг Б.И. Этногеография Турана в древности. – М., “Наука”. 1999. – С. 22.

Quvondaryo, Jonidaryo va Inkordaryolar irmoqlari qo‘shilib, suvlarini Orol botig‘iga olib borishi natijasida “Sharqiy Orolbo‘yi tekisligi shakllangan”²⁸.

Sharqiy Orolbo‘yi tadqiqotchilar tomonidan arxeologik izlanishlar olib borilmaganligi sabab ibtidoiy ovchilarning istiqomat qilgan manzilgohlari to‘g‘risida ma‘lumotlar uchramaydi. Respublikaning Farg‘ona vodiysi (Selung‘ur, So‘x, Chashma), Toshkent hududida (Ko‘lbuloq, Qizilolmasoy-2, Jarsoy, Obirahmat, Xo‘jakent) g‘or-makonlar va ochiq manzilgohlarda etnik jarayonlar davom etgan. Tadqiqotchilar hamkorligida “Markaziy Osiyoda tarixiy-madaniy viloyatlarni shakllanishi va etnik geografiyasi muammolari” monografiya xaritasida paleolit, mezolit davriga oid odamzot tomonidan Sharqiy Orolbo‘yi tekisligini o‘zlashtirishni isbot qiladigan manzilgohlar joylashtirilmagan, neolit davriga bag‘ishlangan xaritada esa Boshquduq, Chalpaq manzilgohlari qayd qilingan. Demak, Orolbo‘yi sharqiy hududi neolit davri urug‘ jamoalari tomonidan o‘zlashtirilib geografik muhit, tabiiy sharoit, suv ta‘minotidan qulayligidan foydalanish davri boshlangan. Shu tariqa, Amudaryo suv sathi ko‘tarilishi munosabati bilan Shimoliy Oqchadaryo hamda Sirdaryoning Jonidaryo, Quvondaryo, Inkordaryo irmoqlari shaxobchalari qo‘shilishi natijasida Turonning shimoliy-sharqiy qismida xo‘jalik-madaniy tiplar shakllangan va etnik munosabatlar makoniga aylangan.

M.A.Itina tadqiqotida Oqchadaryo irmog‘i sharqiy shaxobchalari, Jonidaryo irmoqlari tevarak-atroflarida o‘rnashgan qabilalar ovchilik (yovvoyi hayvonlar, baliq ovlash) va chorvachilik kasbi-korlari bo‘lib, ular ajdodlar an‘analariga sodiq qolganligi²⁹ qayd qilingan.

Bronza davri so‘nggi bosqichi (mil.avv. X-VIII asrlar) jamiyatini geografik manzarasini yog‘och ustunli yarim yerto‘la Yakkaparson-2, Qavat-2 manzilgohlari, Sirdaryo Inkordaryo quyi havzasi shimoliy hududini esa Shimoliy Tagisken maqbarasi aks ettirganlar³⁰.

Mil.avv. IX-VIII asrlarda Xorazm vohasi janubiy chegarasida, Amudaryo o‘rta qismi so‘l sohili hududi Sariqamishbo‘yi shimoliy-sharqiy yer sathidan 20 m. balandlikka aholi tomonidan bunyod qilingan turar-joy Odoytepa adabiyotlar sahifasidan o‘rin olganligi³¹ qayd qilingan.

Sirdaryo quyi va o‘rta qismida shakllangan tekislikda Jetiasar, Chirikrabort, Bobishmulla, Balandi va Baraktom kabi turar-joylar chorvador aholi manfaatlariga xizmat qilgan. Sirdaryo havzasi tevarak-atroflarida 3 ta qabilalar ittifoqi shakllangan. Jonidaryo havzasida – alashaklar, Quvondaryo havzasida – toxarlar (mil.avv. II-I asrlarda) Xorazm orqali Surxon vohasiga borib joylashganlar. Tarixiy adabiyotlarda Surxon vohasi Toxariston deb qayd qilingan. S.P.Tolstov fikricha, Inkordaryo irmog‘i quyi havzasi atroflarida ko‘chmanchi qabilalar ittifoqlaridan biri sakaravaklar o‘rnashganligini qayd qilgan.

²⁸ Кесь А.С. Антропогенное воздействие на формирование аллювиально дельтовых равнин Аму-дарьи // Культура и искусство древнего Хорезма – М.: “Наука”. 1991. – С.73.; Баратов П., Маматкулов М., Рафиков А. Ўрта Осиё табиий географияси. – Тошкент. “Ўқитувчи”. 2002. – Б. 152. Жадвал 2. Ўрта Осиё дарёлари ва Орол денгизининг тўртламчи даврдаги холати. Харита.

²⁹ Итина М.А. История степных племен Южного Приаралья // ТрХАЭЭ. – М.: “Наука”, 1977. – С.184-185.

³⁰ Итина М.А. Поселение Якке - Парсан-2 (Раскопки 1958 – 1959 гг. – М.: “Наука”, 1963. Вып 6. – С.107-129.; Ягодин В.Н. Поселение Амирабадской культуры Кават-2 // МХЭ – М.: “Наука”, 1963. Вып-6. – С.130-140.

³¹ Пилипко В.Н. Раскопки в Дейнауском районе Чарджоуской области //АО 1974 – М. “Наука”, 1975. – С. 527-528.

Chirikrabort ko'chmanchi qabilalari tevarak-atroflarda oziq-ovqat zaxirasi to'xtovsiz foydalanishi munosabati bilan kamayish ko'zga tashlanadi, natijada Inkordaryo irmog'i etagida balandlikda turar-joylarni bino qilganlar. Shunday turar-joylardan biri Balandi-1,2,3 istehkomli xususiyatga ega bo'lgan. Mil. avv. V asr o'rtalaridan – milodiy VI-VII asrlar mobaynida Jetiasar soyi atroflari etnik jarayonlar makoni bo'lgan. Aholi qo'shni hududlar sari migratsion siyosatni olib bormagan, bunga esa tabiiy manbalar zaxirasi serobligidir. Jetiasar qozoq xalqi talaffuzida “yetti yodgorlik”, aslida 20 dan ziyod yodgorliklar bo'lgan. Chunonchi: Oltinasar, Jetiasar-9³². S.P.Tolstov va D.Durdiyevlar Amudaryo Davdon irmog'i quyi havzasida Qang'aqir balandligida istehkomli Qang'qa qal'aning Qang' davlatining ichki siyosatida ustuvor bo'lgan qal'alarni bunyod qilish siyosatiga aloqasi yo'qligini³³ aytib o'tadilar.

Mustaqillik yillarida tadqiqotchilar XX asr nashrlarida qayd qilingan tarixiy ma'lumotlarga e'tibor berib, Sharqiy Orolbo'yi tekisligida chorvador va o'troq aholi to'g'risida fikr-mulohazalar o'rin olgan. Quyi Amudaryo hududi bronza davri manzilgohlarida keng qamrovli qazishma ishlarini olib borgan M.A.Itina tadqiqotlarida arxeologik yodgorliklarni joylashtirish kartografiyasi kuzatilmaydi. M.Turabekov monografiyasida Sirdaryo quyi havzasida arxeologik yodgorliklar Chirikrabort, Bobishmulla, Balandi-1 joylashishi, mudofaa tizimi to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd qilgan³⁴. Lekin mazkur aholi markazlari ijodkorlari qaysi yodgorlik hunarmandlari ekanligi, mahalliy aholi tomonidan tarixiy vaziyat hisobga olinishi yoki chorva mollarni saqlash kabi mulohazalari qayd qilinmaydi. Tadqiqotchi B.I.Vaynberg monografiyasida Orolbo'yi geografik xaritasida Oqchadaryo irmog'i va Jonidaryo irmoqlari joylashishi aks etganligini³⁵ qayd etib o'tgan.

Ikkinchi bobning yakuniy bandida *“Orolbo'yi sharqiy hududida madaniy-xo'jalik mikrovohalarning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanish bosqichlari”* mavzusi ochib berilgan.

Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan XX asrning 30-yillari o'rtalaridan – 1992-yilgacha Orolbo'yi sharqiy hududida ro'yxatga olingan aholi turar-joylarida keng miqyosda qazishma ishlari olib borilgan. Shularning natijalarini asos qilib olgan holda qayd qilingan ma'lumotlarni nazariy-qiyosiy tahlili asosida vujudga kelgan umumlashtirilgan innovatsion g'oyalarga tayanib madaniy-xo'jalik markazlar, ular doirasida mikrovohalarning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanish tarixini yoritish mumkinligi qayd etilgan.

Orolbo'yi sharqiy hududi geografik holati antropogen landshafti, ekologiyasi jihatidan tasvirlanishi Amudaryoning Oqchadaryo irmog'i shaxobchalari hamda Sirdaryoning Jonidaryo, Quvondaryo va Inkordaryo irmoqlari qo'shilishi natijasida uning kengligi 400 km meridian chizig'ida bu tekislik 200-250 km kesib o'tib,

³² Толстов С.П. Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция в 1948. Известия АН ССР, Серия. История и философия. 1949. – № 3. – С. 246-259.; О'sha muallif. По древним дельтам Окса и Яксарта – М.: “Наука”, 1962. – С.170-186.

³³ Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: “Наука”, 1962. – С. 227.; Дурдиев Д. Канга-2 поселение эпохи поздней бронзы //Проблемы археологии Туркменистана – Ашхабад, 1984. – С. 31-37.

³⁴ Туребеков М. Оборотелний соорухения древней поселения и городах Согда. – Нукус., 1990. – С. 86.

³⁵ Вайнберг Б.И. Этногеография Турана в древности VII в. до.н.э. – VIII в. н. э. – М., Вост.Лит.РАН., 1999 – Рис-2., Рис 3. Рис II. Xaritada neolit, bronza va ilk temir yodgorliklari belgilari qayd qilingan.

shimoliy va shimoliy-g'arbiy Sirdaryo o'zanlari, janubida Qizilqum bilan chegaralanishini Inkordaryo belgilab bergan. Geografik adabiyotlarda qayd qilinishicha, odamzotning kelib o'zlashtirilishi arafasida sharqiy Orolbo'yi tekisligi ko'llar, botqoqlik, qamishzor va to'qayzorlar bir-biriga ulanib ketgan.

Xorazm ekspeditasiyasi xodimi M.A.Itina bronza davri tarixi tadqiqotchisi sifatida aholi tomonidan olib borilgan madaniyat tarixini arxeologik jihatdan o'rganishda xizmatlari beqiyosdir. XX asrning 70-yillari oxirlarida tadqiqotchining "Janubiy Orolbo'yi dasht qabilasi tarixi" monografiyasida Oqchadaryo havzasi va shimoliy Oqchadaryo hududida aholisining joylashishi, etnik munosabatlari va unga imkon bergan manzilgohlar to'g'risida axborotlar keng tarzda bayon qilingan. Chunonchi, shimoliy Oqchadaryo hududida joylashgan Chimboy-2, Chagir-1, Buzgul manzilgohlari hamda markaziy va janubiy Oqchadaryo hududlaridagi Ko'kcha-15A,16, Jonbos-21,30,33, Bayram-Qazg'an, Amudaryo so'l sohilida Tuyamo'yin hududida Qo'shbuloq, Sulton Sanjar, Qarriqizil, neolit davri urug' jamoalari eneolit davrida xo'jalik an'alarini olib borib xo'jalik-madaniy tiplarni joylashishi va ularning Amudaryo suv sathi ko'tarilishi natijasida turar-joylarning bir joydan ikkinchi joyga ko'chishiga oid ma'lumotlarni qayd qilgan³⁶.

XX asr 60-yillar boshida S.P.Tolstov tomonidan chop qilingan nashrda Quyi Sirdaryo irmoqlari bo'lgan Jonidaryo va Quvondaryo irmoqlari o'rtasida qal'alar joylashganligini qayd qilgan³⁷.

Mil.avv. X-VIII asrlarga kelganda Sirdaryoning Inkordaryo irmog'i shimoliy hududini ilk bor etnik jarayonlar qamrab olgan. Bu etnik jarayonni Tagisken yodgorligi namoyon etgan. Yodgorlik paxsa bilimi asosida me'moriy jihatdan (nozik uslubda) o'ziga xos qurilishida (kvadrat, ustki qismi dumaloq) amalga oshirilgan³⁸. Mil. avv. I mingyillik o'rtalariga kelib, Sharqiy Orolbo'yi tekisligini sharq dunyosining urbanizatsion jarayonining issiq shabadalari qamrab olgan. Bu esa o'z navbatida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, etnik-madaniy munosabatlari, sernam va serunum tekislikning jadal o'zlashtirilishi, turar-joylar qurilishida sifat va miqdor jihatdan o'zgarishlar yuz berishiga olib kelgan. Mazkur tarixiy davrda Inkordaryo irmoqlari atrofida joylashgan chorvadorlar Quvondaryo va Jonidaryo oralig'i hududlariga kelib joylashib binokorlik bilimi asosida qurilgan yodgorliklarda yashab chorvachilik xo'jaligini yanada jadallashtirganini ko'rishimiz mumkin.

Mil. avv. V asrda Jonidaryo irmog'i sohili etagiga ulangan hududda binokorlik bilimi asosida Chirikrabort yodgorligi qad ko'targan³⁹. Xuddi shu tarixiy davrda Chirikrabortdan 40 km uzoqlikda Bobishmulla yodgorligi bunyod qilingan. Uning joylashish geografiyasi 1 ga tashkil etgan. Milodiy III asrdan boshlab Jonidaryo irmog'i va Jusali oralig'i hududlarini Jetiasar yodgorliklar majmuasi urbanizatsion jarayonlarning natijasi bo'lgan⁴⁰.

³⁶ Итина М.А. История степных Южного при Аралья. – М.: "Наука". 1977. – С. 44-69.

³⁷ Толстов С.П. По древнемРис. 7. – С.29.

³⁸ Итина М.А., Яблонский Л.Т. Мавзелей северного Тагискена. Поздний бронзовый век Нижней Сырдарьи. – М. УВЛ РАН. 2021 – С.102-107.

³⁹ Вайнберг Б.И., Левина Л.М. Чирикрабатская культура // Низовья Сырдарьи в древности. – М. 1993. Вып 1. – С. 37-56.

⁴⁰ Толстов С.П. Хорезмская археологическая-этнографическая экспедиция. АНССР. 1946.//Известия академии наук. – М. 1947. Вып 4. – С.177-182.; О'sha muallif. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. – Тошкент. "Фан". 1964. – Б. 396-397.

Orolbo‘yi sharqiy tekisligida joylashgan madaniy-xo‘jalik markazlar va mikrovoahalar: Jonidaryo irmog‘i sohili etagi hududi atrofini qamrab olgan madaniy-xo‘jalik markazi Chirikrabort⁴¹, Jonidaryo irmog‘i janubiy quyi havzasidagi madaniy-xo‘jalik markazi Bobishmulla⁴², Quvondaryo irmog‘i sohili hududida joylashgan madaniy-xo‘jalik mikrovoahasi markazi Oltinasar⁴³, Oqqir balandligi atrofini qamrab olgan madaniy-xo‘jalik mikrovoahasi markazi Balandi-1⁴⁴, Oltinasar madaniy-xo‘jalik mikrovoahasi doirasida Jetiasar yodgorliklarining mikrovoahalarini birlashtirgan.

Dissertatsiyaning “**Qadimgi davrda Amudaryo va Sirdaryo quyi havzalarida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar**” deb nomlangan uchinchi bobining “*Xorazm vohasi shimoliy-sharqiy va Sirdaryo quyi havzasi o‘rta qismi tekisligida kechgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va etno-madaniy munosabatlar*” deb nomlangan birinchi paragrafida Sharqiy Orolbo‘yi hududida o‘rnashgan qabilalarning ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlari, o‘troq va ko‘chmanchi elatlarning o‘zaro aloqalari masalalariga to‘xtalib o‘tilgan.

Orolbo‘yining sharqiy hududida o‘rnashgan qabilalarning ijtimoiy-iqtisodiy va etno-madaniy munosabatlari Yevropa tarixchilari I.Markvart va A.German asarlarida qayd qilingan⁴⁵. Shuningdek, yunon tarixchisi Gerodot “Araksda, aytishlaricha, kattaligi Lesbos singari orollar ko‘p. Ularda yashaydigan odamlar yerdan kovlab olingan ildizlarni iste‘mol qiladilar. Yozda esa ular daraxtlardan pishgan mevalarni terib olib, so‘ngra zaxirada saqlaydilar⁴⁶” deb qayd qilib o‘tgan. Yunon geografi Strabon esa “ekin yerlarga ega bo‘lmagan orollarda yashovchi ildizlar bilan ovqatlanadi, yovvoyi mevalarni iste‘mol qiladilar, mevalardan siqib chiqarilgan sharbatni ichadilar⁴⁷” deb yozib qoldirgan.

K.A.Akisev tadqiqotlarida “Mil.avv. IX-VIII asrlarda Yevrosiyo dasht chorvador qabilalari jamiyatning xo‘jalik shakllari, turmush-tarzi va madaniyatida tub o‘zgarishlar yuz berdi. Aynan shu davrda yil davomida ko‘chib yurish, chorva podalarini boqish uchun yaylovlar va suv manbalarini mavsumiy taqsimlash tizimi shakllandi⁴⁸” degan ma‘lumotlarni uchratishimiz mumkin.

